

Обуна индекси – 1323

Ислом тафаккури • Исламская мысль • Islamic Thought • الفكر الإسلامي

Islom tafakkuri

ISSN 2181-9572

2025-yil
4-maxsus son

Журналнинг ушбу сони Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 23 сентябрдаги Бирлашган Миллатлар Ташкilotи Бош Ассамблеясининг 80-сессиясидаги нутқида бағишланади.



МУНДАРИЖА

З.М.Исломов. Таълим, илм-фан ва инновациялар соҳасидаги ютуқлар	3
Б.А.Фарфиев. Сифатли таълим – жамият тараққиётининг пойдевори	6
Р.Б.Матибаева. Укрепление роли женщин в общественно-политической жизни как приоритет Нового Узбекистана	10
N.J.Yusupova. Ўзбекистонда кенг камровли ислохотларда хотин-қизларнинг роли (Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкilotи Бош Ассамблеясининг 80-сессиясидаги нутқи асосидаги таҳлиллар).....	14
Z.X.Kasimova, N.J.Jo'rayeva. BMT minbarida ta'lim: Yangi O'zbekistonda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlari	18
Ш.Акмалов. Ўзбекистоннинг Афғонистон борасидаги жадал сиёсати.....	21
М.М.Назирова. Ўзбекистоннинг иқлим ўзгаришига қарши курашиш ва экологик барқарорлик бўйича ташаббуслари	25
О.Ерназаров. O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashi va rehabilitatsiya markazlari.....	31
А.Акмалханов. БМТ-80: Янги Ўзбекистон, Янги Марказий Осиё ва глобал хатарларга комплекс ёндашув	34

Муассислар:

Дин ишлари бўйича қўмита,
Ўзбекистон мусулмонлари идораси,
Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси

Бош муҳаррир:

Музаффар КАМИЛОВ

Нашр учун масъул:

Иродахон ГАФУРОВА

Таҳрир хайъати:

Нурислом ТУХЛИЕВ
Иргаш ДАМИНОВ
Зоҳиджон ИСЛОМОВ
Аҳаджон ҲАСАНОВ
Матлуба КАХХАРОВА
Илҳомжон БЕКМИРЗАЕВ
Иродахон ГАФУРОВА

Жамоатчилик кенгаши:

Содиқ ТОШБОЕВ
Неъматулло МУХАМЕДОВ

Муҳаррир:

Дурбек РАҲИМЖОНОВ

Рус ва инглиз тили муҳаррири:

Разия МАТИБАЕВА

Бадий муҳаррир:

Лутфулло АБДУЛЛАЕВ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида
2018 йил 17 сентябрда рўйхатга олинган.
Гувоҳнома рақами – 0968.
Йилда ўн иккита сонгача нашр этилади.
Нашр кўрсаткичи – 1323.
ISSN 2181-9572

Таҳририят манзили:

Тошкент ш., А.Қодирий кўчаси, 11-уй.
Тел./факс: (+99871) 244-00-91
E-mail: islomtafakkuri@iiau.uz

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари бўйича
қўмитасининг 21.10.2025 йилдаги
03-07/6532-сонли хулосаси асосида тайёрланди.

Қўлғизмалар қайтарилмайди.
Мақолалар кўчириб босилса ёки иқтибос
олинса, «Ислом тафаккури» журналидан
олингани кўрсатилиши шарт.
Журнал саҳифаларида Аллоҳ таоло исмлари,
Қуръони карим оятлари ва ҳадислар берилаётгани сабабли
уни ножииз жойларга ташламанг.

Журналдаги мақолаларда берилган маълумотларнинг
тўғри ва оригиналлиги учун муаллифларнинг шахсан
ўзлари масъулдирлар.

Босишга 31.10.2025 йилда рухсат берилди.
Қоғоз бичими 60x84 1/8. Офсет усулида
босилди. Шартли 32,6 б.т. Буюртма:
Адади 100 дона.

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
Тошкент ш., А.Қодирий кўчаси, 11-уй.

Д.К.Сагдуллаева. Буюк аждодлар мероси жаҳон инсонпарварлик дастури сифатида.....	38	Ж.А.Во‘риев. Ма‘рифат – tinchlik va taraqqiyot kaliti	67
А.С.Назаров. Yangi O‘zbekiston strategiyasida liderlikning transformatsion modeli: Prezident nutqining psixologik tahlili.....	41	М.Мадаева. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти ва Ўзбекистон: рақамли трансформация ҳамда таълим соҳасидаги янги истикболлар	70
Ҳ.Шукuroв. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyili: ochiq muloqot va konstruktiv hamkorlik.....	46	Г.У.Шарипова. Анализ эволюции стратегического планирования в Республике Узбекистан (1991–2023 гг.)	73
М.Хуррамов. Yangi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiya istiqbollari	49	Ж.Собиров. Tinchlik sari O‘zbekiston yo‘li: BMT tizimida global xavfsizlik arxitekturasini takomillashtirish borasida tashabbuslar	81
Ш.Р.Рашидова. Семья как стратегический ресурс государства: эволюция правового статуса института семьи в условиях социальных реформ «Нового Узбекистана»	53	Ф.Т.Рашидов. Ўзбекистон Республикасининг демократик, ҳукукий ва дунёвий давлат қуриш сиёсати	85
А.Казакбаев. Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш ва барқарор ривожланиш	60	С.С.Бургутхонов. Ўзбекистондаги бағрикенглик сиёсатининг халқаро даражадаги намоиши.....	88
М.Т.Кадырова. Стратегия «Узбекистан-2030»: комплексный подход к социально-экономической трансформации.....	64	О.Р.Назаров. O‘zbekistonning BMT minbaridagi tashabbuslari va Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishda uning o‘rni	92

SOBIROV Javohirxon

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Xalqaro munosabattlar kafedrasida katta o'qituvchisi,
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori PhD
sjavohirkhon@jiaau.uz*

TINCHLIK SARI O'ZBEKISTON YO'LI: BMT TIZIMIDA GLOBAL XAVFSIZLIK ARXITEKTURASINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TASHABBUSLAR

UZBEKISTAN'S PATH TO PEACE: INITIATIVES TO ENHANCE THE ARCHITECTURE OF GLOBAL SECURITY WITHIN THE UN SYSTEM

ПУТЬ УЗБЕКИСТАНА К МИРУ: ИНИЦИАТИВЫ ПО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ АРХИТЕКТУРЫ ГЛОБАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СИСТЕМЕ ООН

Annotatsiya. Mazkur maqolada XXI asrda insoniyat oldida turgan global tahdidlar – iqlim o'zgarishi, yadroviy xavf, terrorizm, kiberxavfsizlik va pandemiyalar kabi muammolarni bartaraf etishda xalqaro hamkorlik mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 80-sessiyasi doirasida global xavfsizlik arxitekturasini takomillashtirish, BMT tizimini isloh qilish va ko'p tomonlama diplomatik muloqotni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida ilgari surilgan asosiy tashabbuslar – BMT Xavfsizlik Kengashini modernizatsiya qilish, terrorizmga qarshi kurash va reintegratsiya bo'yicha mintaqaviy kengashni xalqaro kompetentsiya markaziga aylantirish, shuningdek, O'zbekistonda mintaqaviy terrorizmga qarshi idora ochish takliflari ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, BMT, global xavfsizlik, xalqaro hamkorlik, Shavkat Mirziyoyev, Xavfsizlik Kengashi, terrorizmga qarshi kurash, reintegratsiya, xalqaro diplomatiya, ko'p tomonlama tizim, BMT islohoti.

Abstract. This article analyzes the significance of international cooperation mechanisms in addressing the global challenges of the 21st century – such as climate

change, nuclear threats, terrorism, cybersecurity, and pandemics. Within the framework of the 80th session of the United Nations, particular attention was paid to improving the architecture of global security, reforming the UN system, and strengthening multilateral diplomatic dialogue. The article provides a scholarly analysis of the key initiatives proposed by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, in his address to the UN General Assembly – namely, the modernization of the UN Security Council, the transformation of the Regional Council on Counter-Terrorism and Reintegration into an international competence center, and the establishment of a regional counter-terrorism body in Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan, United Nations, global security, international cooperation, Shavkat Mirziyoyev, Security Council, counter-terrorism, reintegration, international diplomacy, multilateral system, UN reform.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение механизмов международного сотрудничества в решении глобальных вызовов XXI века – таких как изменение климата, ядерная угроза, терроризм, кибербезопасность и пандемии. В рамках 80-й сессии Организации Объединённых Наций особое внимание было уделено совершенствованию архитектуры глобальной безопасности, реформированию системы ООН и укреплению многостороннего дипломатического диалога. В статье проводится научный анализ основных инициатив, выдвинутых Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым в его выступлении на Генеральной Ассамблее ООН – модернизация Совета Безопасности ООН, преобразование Регионального совета по борьбе с терроризмом и реинтеграции в международный центр компетенций, а также предложение об открытии в Узбекистане регионального органа по борьбе с терроризмом.

Ключевые слова: Узбекистан, ООН, глобальная безопасность, международное сотрудничество, Шавкат Мирзиёев, Совет Безопасности, борьба с терроризмом, реинтеграция, международная дипломатия, многосторонняя система, реформа ООН.

KIRISH

XXI-asrda insoniyat oldida turgan global muammolar – iqlim o'zgarishi, yadroviy xavf, terrorizm, epidemiyalar va kiberxavfsizlik kabi tahdidlar – biror davlatning yolg'iz harakati bilan hal qilinishi mumkin emas. Shuning uchun xalqaro hamkorlik mexanizmlari jahon hamjamiyatida barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy vositasiga aylandi. Jahon hamjamiyatining global muammolarga yechim topishi, tinchlik

va barqarorlikni ta'minlashi hamda davlatlar o'rtasidagi manfaatlarni muvofiqlashtirishi tobora dolzarblashib bormoqda.

BMTning 80-sessiyasi ham mazkur maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirildi. Unda davlat rahbarlari va xalqaro tashkilotlar vakillari iqlim o'zgarishi, barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish, qashshoqlik va notenglikka qarshi kurash, migratsiya, terrorizm, yadroviy xavfsizlik kabi masalalarni muhokama qilish orqali xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yanada mustahkamlashga chaqirdilar. Sessiyaning asosiy shiori "80 yil va undan keyin ham tinchlik, taraqqiyot va inson huquqlari uchun birga" degan g'oya bo'lib, u davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va muloqotni kuchaytirish, BMT tizimini isloh qilish va uning global muammolarga javob berish salohiyatini oshirishni ko'zda tutadi.

BMTning 80-sessiyasi shuningdek xalqaro hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi. Xususan, "UN80 Initiative" doirasida BMT institutlarining samaradorligini oshirish, mandatlarini qayta ko'rib chiqish va global tahdidlarga tezkor javob berish imkoniyatlarini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa xalqaro munosabatlarda ko'p tomonlama muloqot va hamkorlikning ahamiyati ortib borayotganini, davlatlar faqat birlashgan holda global muammolarni hal etishi mumkinligini yana bir bor tasdiqladi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Prezident o'z chiqishida global xavfsizlikning yangi tamoyillarini ilgari surib, mintaq va dunyo miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun birlashgan harakatlarning zarurligini ta'kidladi. Xususan, u Markaziy Osiyoda barqarorlik va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, iqlim o'zgarishi va ekologik xavflarga qarshi kurashish, yoshlar masalasi hamda inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamjamiyatning hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini urg'uladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev taklif etgan tashabbuslar nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham muhim yo'nalishlarni qamrab olib,

BMT doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatini yaratdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida qilgan nutqi xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish bo'yicha takliflari va ularning ahamiyati bilan alohida ajralib turdi. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar global muammolarni birgalikda hal qilish, iqlim o'zgarishiga moslashuv, suv va oziq-ovqat xavfsizligini taminlash, yoshlar va ayollar huquqlarini qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlarini qamrab oldi. Ushbu takliflar BMT doirasida ko'p tomonlama muloqotni mustahkamlash, davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni kuchaytirish va insoniyat taraqqiyotiga tahdid solayotgan muammolarga kompleks yondashuvni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident Mirziyoyev nutqida global siyosat va iqtisodning murakkab, tez o'zgaruvchan sharoitini e'tirof etdi – xalqaro institutlarning roli susayayotgani, nizolar va mojarolar kuchayayotgani, texnologik va ijtimoiy tengsizliklar o'sayotgani, hamda iqtisodiy va insonparvarlik inqirozlari chuqurlashayotgani qayd etildi.

Bunday vaziyatda xalqaro tashkilotlar tizimini yangilash, hamkorlikni kengaytirish va yangi mexanizmlarni yo'lga qo'yishni taqozo qiladi. Prezident ana shunday yangi mexanizmlar bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi.

– BMT doirasida reformalar va mustahkamlash – BMT Xavfsizlik Kengashining vakolatlarini modernizatsiya qilish va kengaytirish taklifi:

BMTning asosiy tuzilmalari ichida Xavfsizlik Kengashi jahon tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. Ammo uning tarkibi va vakolatlari ikkinchi jahon urushi ortidan shakllangani sababli, hozirgi kundagi global siyosiy, iqtisodiy va demografik o'zgarishlarga to'liq javob berolmay qolmoqda. Shu bois, BMT doirasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida Xavfsizlik Kengashini modernizatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirish masalasi kun tartibiga chiqarilgan.

Birinchidan, geosiyosiy muvozanatni ta'minlash zarurati mavjud. Hozirgi paytda 15 a'zo davlatdan 5 tasi doimiy (AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Rossiya va Xitoy) hisoblanadi. Bu esa XX asrdagi kuchlar nisbatiga asoslangan bo'lib, XXI asrning realiyacida yangi qutblarni – Hindiston, Braziliya, Germaniya, Yaponiya,

Turkiya, Afrika davlatlari kabi yirik siyosiy va iqtisodiy o'yinchilarning manfaatlarini yetarlicha aks ettirmaydi.

Ikkinchidan, rivojlanayotgan davlatlar ovozi kuchaytirish talab etiladi. Afrika, Lotin Amerikasi va Markaziy Osiyo mintaqalarida aholining ulkan ulushi yashaydi, ular global iqtisodiy va ekologik jarayonlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, global muammolar – iqlim o'zgarishi, terrorizm, migratsiya va oziq-ovqat xavfsizligi kabi masalalar aynan shu hududlarda o'tkir namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun ham bu mintaqalardan ham doimiy yoki doimiy bo'lmagan asosda yangi a'zolar kiritilishi talab etilmoqda.

Uchinchidan, vakolatlarning shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash zarur. Xavfsizlik Kengashining qaror qabul qilish jarayonida ayrim davlatlarning veto huquqidan cheklanmagan tarzda foydalanishi ko'pincha global muammolar yechimini kechiktiradi yoki imkonsiz qiladi. Shu sababli, veto huquqini cheklash, yoki uni faqat insoniyat uchun favqulodda xavf tug'diruvchi masalalarda qo'llash takliflari ilgari surilmoqda.

To'rtinchidan, yangi xavf va tahdidlarga moslashuvchan yondashuv kerak. Bugungi kunda yadroviy xavf bilan birga, kibertahdidlar, biotexnologiyalarni suiiste'mol qilish, global pandemiyalar, ekologik inqirozlar kabi masalalar Xavfsizlik Kengashi muhokamalari doirasiga kirishi shart.

– Xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va reintegratsiya – Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun "Reabilitatsiya va reintegratsiya bo'yicha mintaqaviy Kengash"ni xalqaro kompetensiya markaziga aylantirish taklifi:

Bugungi kunda terrorizm, ekstremizm va radikal g'oyalarning tarqalishi global xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy joylashuvi, tarixiy-madaniy umumiyliги va yoshlar sonining ko'pligi bois, radikal oqimlar ta'siriga nisbatan sezgir hudud hisoblanadi. Shu bois terrorizmga qarshi kurashish bilan bir qatorda, unga kirib qolgan shaxslarni jamiyatga qaytarish – ya'ni reabilitatsiya va reintegratsiya masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

"Reabilitatsiya va reintegratsiya bo'yicha mintaqaviy kengash" aynan shu jarayonlarda muhim platforma sifatida namoyon bo'lishi kutilmoqda. Bu kengashning xalqaro kompetensiya markaziga aylanishi qator muhim yo'nalishlarda ahamiyatli:

Ta'lim va qayta ijtimoiylashuv dasturlarida:

Terrorchilik yoki radikal oqimlarga aldanib kirib qolgan shaxslarni jamiyatga qaytarishda psixologik yordam, kasbiy tayyorgarlik va ta'lim orqali ularni sog'lom ijtimoiy muhitga integratsiya qilish.

Huquqiy va me'yoriy asoslarni uyg'unlashtirishda:

Markaziy Osiyo davlatlarining qonunchilik tizimida terrorizmga qarshi kurash va reintegratsiya bo'yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish, xalqaro huquqiy standartlarga moslashtirish.

Tajriba va ilg'or amaliyotlar almashinishda:

Turli mamlakatlar tajribasini o'rganish, jumladan Yevropa, Janubi-Sharqiy Osiyo yoki Yaqin Sharqda qo'llanilayotgan reabilitatsiya usullarini mintaqaviy sharoitga moslashtirish.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik:

BMTning Terrorizmga qarshi kurashish qo'mitasi, YeXHT, ShHT va Islom hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlikda dasturlar amalga oshirish. Bu Markaziy Osiyoda global standartlarga asoslangan xalqaro kompetensiya markazini shakllantiradi.

Yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlash:

Terrorizmga qarshi kurashda yoshlar va xotin-qizlarning ijtimoiy rolini kuchaytirish, ularni radikal g'oyalar ta'siridan himoya qilish va barqaror rivojlanish jarayoniga jalb etish.

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun bunday kengashning xalqaro kompetensiya markaziga aylanishi nafaqat mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlaydi, balki jahon hamjamiyati uchun ham universal model bo'lib xizmat qiladi. Bu tashabbus xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish va global terrorizmga qarshi kurashda yangi innovatsion yo'nalishlarni joriy etish imkonini yaratadi.

– O'zbekistonda mintaqaviy terrorizmga qarshi idora ochish taklifi jahon miqyosida terrorizm va ekstremizmga qarshi hamkorlikni kuchaytirishga imkon yaratadi.

O'zbekiston tomonidan mintaqaviy terrorizmga qarshi idora ochish taklifi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun jahon miqyosida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda terrorizm, ekstremizm va radikal g'oyalar chegara bilmaydigan, transmilliy xususiyatga ega tahdidlar hisoblanadi. Shu bois, ularga qarshi samarali kurash olib borishda alohida davlatlar harakatidan ko'ra, mintaqaviy va global hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda tashkil etiladigan

bunday idora quyidagi yo'nalishlarda jahon hamjamiyati uchun dolzarb vazifalarni amalga oshirishi mumkin.

Markaziy Osiyoda terrorizm va ekstremizm tahdidlarini baholash, ularga qarshi umumiy strategiya ishlab chiqish va davlatlar faoliyatini muvofiqlashtirish; xalqaro va mintaqaviy darajada terrorizm bilan bog'liq ma'lumotlarni tezkor almashish, xavflarni oldindan aniqlash va ularga barvaqt javob berish imkoniyatini yaratish; terrorizmga qarshi kurashish sohasida huquq-tartibot organlari, chegara xizmati, kiberxavfsizlik mutaxassislari uchun o'quv dasturlari yo'lga qo'yish, xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda ilg'or tajribani joriy etish; Terrorchilik oqimlariga aldanib kirib qolgan shaxslarni jamiyatga qaytarishda ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish va ularni xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish; BMTning Terrorizmga qarshi kurashish qo'mitasi, YeXHT, ShHT va IHT kabi tuzilmalar bilan uzviy hamkorlik o'rnatish orqali markazning vakolatlarini kengaytirish; Internet va moliya tizimi orqali tarqaladigan radikal g'oyalarga qarshi global standartlar asosida hamkorlik mexanizmlarini joriy qilish.

O'zbekistonda mintaqaviy terrorizmga qarshi idora ochish tashabbusi jahon miqyosida terrorizm va ekstremizmga qarshi hamkorlikni kuchaytirishga, davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashga, shuningdek, xavfsizlik sohasida yangi xalqaro kompetentsiya markazini shakllantirishga zamin yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XXI asrda insoniyat oldida turgan global tahdidlar – iqlim o'zgarishi, yadroviy xavf, terrorizm, epidemiyalar va kiberxavfsizlik masalalari davlatlarning bir yolg'iz harakati bilan hal qilinishi mumkin emas. Shu bois xalqaro hamkorlik mexanizmlari jahon hamjamiyatida tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy vositasiga aylanmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida ham shu maqsadlar ko'zda tutilgan bo'lib, xalqaro hamkorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, mavjudlarini esa takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida xalqaro hamkorlikni yangicha shakllantirish va institutsional islohotlarni kuchaytirish bo'yicha konstruktiv takliflari mintaqaviy integratsiya, global xavfsizlik, iqlim, raqamli hamkorlik va

diplomatik rolni mustahkamlashga qaratilgani bilan alohida ajralib turdi.

BMT Xavfsizlik Kengashini modernizatsiya qilish va kengaytirish taklifi, terrorizmga qarshi kurash va reintegratsiya bo'yicha mintaqaviy kengashni xalqaro kompetentsiya markaziga aylantirish g'oyasi, hamda O'zbekistonda mintaqaviy terrorizmga qarshi idora ochish tashabbusi xalqaro hamjamiyatning dolzarb ehtiyojlariga mosdir. Bu tashabbuslar nafaqat Markaziy Osiyoda, balki jahon miqyosida ham xavfsizlikni ta'minlash, global tahdidlarga barvaqt javob berish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish hamda barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shu tariqa, O'zbekistonning BMT minbaridan ilgari surgan tashabbuslari xalqaro hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashda, davlatlar o'rtasida ishonch va hamjihatlikni kuchaytirishda va global muammolarga samarali yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. (2025, September). Speech at the 80th Session of the United Nations General Assembly. New York: United Nations.
2. United Nations (UN). (2025). UN80 Initiative: Strengthening the UN System for the Next 80 Years. New York: United Nations Publications.
3. United Nations General Assembly. (2025). 80th Session – General Debate Highlights. Official Records of the United Nations General Assembly.
4. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2025). Initiatives of President Shavkat Mirziyoyev at the UN Platform. Tashkent: MFA Press Service.
5. Guterres A. (2021). Our Common Agenda: Strengthening Multilateralism for Global Governance. New York: United Nations.
6. Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. (2024). Conceptual Approaches to Security and Rehabilitation Policy in Central Asia. Tashkent.
7. Organization of Islamic Cooperation (OIC). (2023). Joint Efforts Against Extremism and Terrorism in Central Asia. Jeddah: OIC Publications.
8. Qodirov A., & Yoqubov M. (2024). Modernization of the Global Security System: The Role of International Institutions // Journal of International Relations, 3(58), 42-56.
9. Sobirov J. A. (2023). Stability and Security Policy in Central Asia: The Experience of Uzbekistan. Tashkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Press.